

**МЕҲНАТ ВА КАСБ ТАЪЛИМИ  
ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ  
КОМПЕТЕНТЛИГИНИ  
ШАКЛАНТИРИШДА  
ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР**

**Республика илмий-амалий анжумани**



**Бухоро – 2019**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МЕҲНАТ ВА КАСБ ТАЪЛИМИ  
ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ  
КОМПЕТЕНТЛИГИНИ  
ШАКЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН  
ЁНДАШУВЛАР**

**Республика илмий-амалий анжумани  
материаллари тўплами**

**2019 йил 17 май**

**Бухоро – 2019**

**“Меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантиришда инновацион ёндашувлар” Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами (2019-йил 17 май), Бухоро - 2019.**

**“Меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантиришда инновацион ёндашувлар” Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўпламига илмий тадқиқот ишлари олиб бораётган изланувчилар ва тадқиқотчилар, профессор-ўқитувчилар, магистрлар ҳамда талабаларнинг илмий ишлари киритилган.**

Ушбу илмий-амалий анжуманнинг асосий мақсади таълимнинг узвийлигини ва узлуксизлиги таъминлаш, меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларининг касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш ҳамда шакллантиришда инновацион ёндашувлар мазмунини ўқув жараёнини модернизациялаш масалалари, таълим жараёнини сифатли ташкил этиш, олий таълим муассасаларининг моддий техник базасини ривожлантириш, таълим турлари ўртасидаги интеграция жараёнларини жадаллаштириш, умумий ўрта таълим муассасаларида “Технология” фанини ўқитишда инновацион таълим технологияларидан фойдаланишнинг устувор йўналишларини белгилаш борасида эришилган ютуқларни ёритиш ва муаммолар ечимини топиш, шунингдек, таълим тизимидағи ҳамкорлик борасида фикр алмашиш, мушоҳада юритиш, илмий-амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишидан иборатdir.

Анжуман материалларидан профессор-ўқитувчилар, илмий изланувчилар, тадқиқотчилар ҳамда талабалар фойдаланишлари мумкин.

#### **Ташкилий қўмита:**

- |                  |  |
|------------------|--|
| 1. О.Х. Хамидов  | университет ректори, раис;                                   |
| 2. О.С. Қаххоров | илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис мувонини; |
| 3. О.Х. Раҳимов  | Молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо;              |
| 4. С.Қ. Қаххоров | Физика кафедраси профессори, аъзо;                           |
| 5. Г.Т. Зарипов  | И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо;                             |
| 6. Э.М. Мухторов | Педагогика факультети декани, аъзо;                          |
| 7. Ш.Ш. Олимов   | Педагогика кафедраси мудири, аъзо;                           |
| 8. Ш.Ҳ. Кулиева  | Меҳнат таълими кафедраси мудири, аъзо;                       |
| 9. Ҳ.О. Жўраев   | Меҳнат таълими кафедраси доценти, аъзо;                      |
| 10. А.А. Тўраев  | Меҳнат таълими кафедраси катта ўқитувчи PhD, котиб.          |
| 11. Ю.Ю. Жамилов | Меҳнат таълими кафедраси ўқитувчи, аъзо;                     |

#### **Маъул мухаррир:**

- А.А. Тураев** “Меҳнат таълими” кафедраси катта ўқитувчи, ф.-м.ф.ф.д. (PhD)  
**Ю.Ю. Жамилов** “Меҳнат таълими” кафедраси ўқитувчи

#### **Тақризчилар:**

- Б. Р. Адизов** педагогика фанлари доктори, профессор.  
**Ш.Ш. Олимов** педагогика фанлари доктори, доцент.

Мазкур тўпламга киритилган материалларнинг илмий савияси мазмuni ва уларнинг ҳаққонийлигига муаллифлар масъулдир.

Бухоро давлат университети, 2019 й.

dush to'rlari, suv taqsimlash armaturasi va boshqalar) tayloranadi. Polietilen plyonkalari konstruksiyalarni gidroizolyasiyalash uchun ishlataladi.

Polipropilen propilenni polimerlash yo'li bilan olinadigan rangsiz, yaltiroq termoplastik materialdir. Polietilenga qaraganda polipropilenning mustahkamligi va issiqlikka chidamligi yuqori, suv va gaz o'tkazuvchanligi hamda ximiyaviy barqarorligi past . Polipropilendan yasalgan buyumlarni  $120^{\circ}$  C gacha temperaturalarda ishlatalish mumkin. Polietilenga qo'shilgan stabilizatorlarni propilenga ham qo'shib, uning eskirishini sekinlatish mumkin. Polipropilendan trubalar, trubalar armaturasi va suv taqsimlash armaturasi, umivalnik hamda vannalarning sifonlari, shuningdek gidroizolyasyon plyonkalar tayyorlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baranovskiy M.A., Verbiskiy Y.I., Dmidrovich A.M. «Texnologiya metallov i drugix konstruksionníx materialov» Minsk: Visschiy shkola, 1993.
2. Popov L.N. «Stroitelniy materiali i detali» M.: Storyizdat, 1993.
3. Etus A.Y. «Materialovedeniý» M.: Stroyizdat, 2005.

## **TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARNING QO'LLANILISHI**

**O.N.Muxidova**

*BuxDU "Mehnat ta'lifi" kafedrasini o'qituvchisi*

Umumiy o'rta ta'lif maktablarda texnologiya fanidan darslarni tashkil etishda grafikli organayzerlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni darslarda faol ishtirok etishini, ta'lif mazmuniga oid o'rganilayotgan tushunchalarni, murakkablik darajalari turlicha bo'lgan mavzularni, fanlararo amalga oshirilayotgan aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik o'rnatishni, tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash, topshiriqlili muammolarni aniqlash, ularni hal etish va berilgan amaliy topshiriqlarni rejalahtirish, tafakkur qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) - fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi.


Texnologiya fanidan darslarda grafikli organayzerlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, mavzuga oid ma'lumotlarni og'zaki ravishda o'zlashtirish ko'rsatkichi 10% bo'lgan sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi. Darslar davomida o'quvchilarga o'quv materialni ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim. O'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish orqali o'qitish samaradorligi natijaviyligiga erishish mumkin. Chunki, xalqimizda bir naql bor «Ming marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan yaxshi».

Shunday ekan, yuqorida keltirilgan fikrlardan foydalanib, grafikli organayzerlardan “Tikuvchilik materialshunosligi” darslarida qo'llanilishini “Tabiiy tollalar” mavzusida ko'rib chiqamiz:

1. Tabiiy tola turlarini klasterda tasvirlang.

Klaster – (tutam, bog’lam) – axborot xaritasini tuzish yo’li – barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g’oyalarni yig’ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo’yicha yangi o’zaro bog’lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.



**Venna diagrammasi** – 2 va 3 jihatlarni hamda umumiylarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo’yish uchun qo’llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Paxta va zig’ir tolalarini Venna diagrammasida taqqoslang.

Jun va ipak tolalarini Venna diagrammasida taqqoslang.

### **PAXTA**

1. Sellyuloza-95-96%.
2. Uzunligi – 25-45 mm.
3. Rangi – oq, biroz sariq.
4. Gigroskopikligi – 8-9 %.
5. Sovun-soda eritmalariga paxtaga ta'sir qilmaydi.
6. Quyosh nuri 940 soat ta'sir qilganda pishiqligi 50% pasayadi.

### **ZIG'IR**

1. Tabiiy o'simlik tola.
2. Yo'g'onligi – 15-26 mm.
3. Kislotaga chidamsiz.
4. Kuyganda sarg'ish alanga berib yonadi.
5. Sovun-soda eritmalarida qaynatilganda pectin moddalar eriydi.
6. Quyosh nuri 990 soat ta'sir qilganda pishiqligi 50% pasayadi.
7. Tarkibida 50% lignin bor.

### **JUN**

1. Tarkibi – keratin
2. Uzunligi – 20-250 mm.
3. Rangi – Oq, sariq, jigar, qora, kul rang.
4. Gigroskopikligi – 15-18 %.
5. Sovun-soda eritmalariga chidamli.
6. Quyosh nuri 1120 soat ta'sir qilganda pishiqligi 50% pasayadi.

### **IPAK**

1. Tarkibi – 75% - fibroin, 25% - seritsin
2. Uzunligi – 300 -1500 m.
3. Rangi – oq, biroz sariq.
4. Gigroskopikligi – 11%
5. Sovun-soda eritmalarida pishiqligi pasayadi.
6. Quyosh nuri 200 soat ta'sir qilganda pishiqligi 50% pasayadi.

**Konseptual jadval-** o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tabiiy tola turlari	Ta'riflar, toifalar, xususiyatlar				
	Tarkibi	Tuzilishi	Turlari	Rangi	Gazlama turi
<b>Paxta</b>	95-96% - selluloza 4-5% - moy, mum, bo'yoq, mineral modalar	Bitta o'simlik xujayrasidan iborat. Pishgan paxta tolsi spiralsimon, buralgan yassi naychalardan iborat, ko'nda lang kesimi oval shklda bo'ladi.	1.Mutlaqo pishmagan o'lik tola; 2.Pishmagan tola; 3.Yaxshi pishmagan tola; 4.Pishgan tola; 5.Pishib ketgan tola.	Oq, biroz sariq	Chit, satin, batist, bayka, markizet, flannel, bumazey, bo'z, mitkal
<b>Zig'ir</b>	80% - selluloza 20% - moy, mum, bo'yoq, mineral modular va lignin	O'rtasida tor kanali va yo'g'onlashgan tirsaksimon joylari bor. Uchi o'tkir, kanali ikki tomondan berk, ko'ndalang kesimi 5-6 yoqli ko'pburchakdan iborat.	1.Elementar tola; 2.Texnik tola	Och kul-rang, to'q kul-rang	Choyshab, dasturxon, sochiq, ich kiyimlik, ko'ylak, kostyumlik bortovka, qotirmalik gazlamalar
<b>Jun</b>	Keratin	Tangachali, qobiq va o'zak qatlamlardan iborat.	1.Momiq tola; 2.Dag'al tuk; 3.Oraliq tola; 4.O'lik tola	Oq, sariq, jigar, qora, kul rang	Kamvol, movut, drap, boston, sheviot, krep, triko, gabardin, bukle, diagonal,
<b>Ipak</b>	75% fibroin, 25% seritsin	Parallel notekis seritsin qatlami-dan iborat. Ko'ndalang kesimi dum-a-	Xom ipak	Oq, biroz sariq	Atlas, adres, olacha, banoras, krepdishin, krepjorjet, krepshifon,

		loq, ovalsimon, lentasimon.			glad, jakkard, baxmal, duxoba
--	--	--------------------------------	--	--	----------------------------------

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fani darslarida interfaol usullarni qo'llash o'quvchilarda bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalg qilishga yordam beradi. Shuningdek, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirib, kasbiy sifatlar hamda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantiradi.

## **TA'LIM TIZIMIGA MUQOBIL ENARGIYA MANBAALARIDAN FOYDALANISH BO'YICHA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI YARATISH MASALALARI**

**Z.Tairov**

*BMTI "Elektroenergetika" kafedrasи dotsenti*

Hozirgi vaqtida kelajagi buyuk mustaqil O'zbekistonimizga yuqori malakali texnik xodimlar va kasb-hunar egalari qanchalik zarur bo'lsa, kelgusida shu sohani davom ettiruvchi hur fikrli izlanuvchan yosh mutaxasislarni tayyorlash ham shunchalik zarurdir.Darhaqiqat, hozirgi zamon ishlab chiqarish sharoitiga inson faoliyatining xarakterli xususiyatlaridan biri uning texnika vositalari va texnologik jarayonlarni bajarishdagi vositachiligidir.Shu nuqtai nazardan hozirgi avlodni texnikaviy bilimlar bilan qurollantirish texnologik jarayonlarni bajara oladigan malakali mutaxasislarni tayyorlash hozirgi davrning asosiy talablaridan biridir.

Ta'lism tizimiga o'qitiladigan fanlar qatoriga boy merosimiz, hozirgi zamon fani ilg'or texnika va texnologiyalarini mahalliy imkoniyatlar bilan uyg'unlashtiruvchi yangi fanlar yaratilsa, so'zsiz ijobiy natijalar beradi.Shunday imkoniyatlardan biri muqobil energiya manbaalaridan foydalanishni o'qitilishini tashkil qilishdir.

Keyingi yillarda muqobil enargiya manbaalaridan foydalanishga qiziqish oshmoqda. Soha mutaxasislarining ma'lumotlariga qaraganda O'zbekistonda 1 yilda quyosh energiyasi hisobidan 265mln tonna, gidrovlik, 2,92mln tonna shamol ,064mln tonna shartli yoqilg'i enargiyasini texnikaviy foydalanish imkoniyati bir ekan bu olinishi mumkun bo'lgan energiyani hisobga olsak imkoniyatlariniz yanada kengayadi. Ta'lism tizimida muqobil energiya manbaalaridan foydalanuvchi qurilmalarini loyihalash, yashash, sinash va ta'lism tizimlaridan qo'llanish borasida bir qator tajribalar to'plandi.O'z tajribalarimizdan misollar keltirib fikrimizni asoslamoqchimiz.

1974-1978-o'quv yillarida BuxDU umumiyl texnika fakultetida Oliyoh talabalari bilan o'rta umumta'lim maktablarida fizika va texnikaviy mehnat ta'limi darslaridan giotexnikani o'rganish masalalari bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi.

1977-yilda kasb ta'lism yo'nalishida ta'lism olayotgan 3-kurs talabasi M.Yodgorova "Texnik mexnat ta'limi mashg'ulotlarida geleoqurilmalarini tayyorlashni o'rganish" mavzusidagi ishi bilan Respublikada o'tkazilgan Oliyoh talabalarining ilmiy anjumanidan faxrli 3-o'rinni egallagan edi.

М.Х.Шомирзаев, С.Т.Давлатова.	Умумтехника фанларини ўқитишида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш	154
У.Ф.Тураева.	Определение излучательной способности стационарным методом	157
А.А.Baymurzaeva, G.X.Utepbergenova	Mobil texnologiyalarning interfaol vositalaridan o'quv jarayonida foydalanishning hozirgi holati	162
Н.М.Хамдамова	Ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини шакллантиришда муқобил энергия манбалари қурилмаларидан фойдаланиш	164
Ў.О.Тоҳиров	Технология фанини ўқитишида янги авлод дарсликларининг роли ва аҳамияти	167
М.Н.Каримова	Maxsus фанларнинг ўқитиш тамойиллари	169
S.T.Davlatova	Elektron xabarlarni yetkazishning mobil tizimi va kriptografiya yordamida elektron xabarlarni himoyalash	172
Sh.Ch.Tursunov	Texnologiya fanidan darslarni mazmunli tashkil etish (polimer material qismidan)	174
O.N.Muxidova	Texnologiya fanini o'qitishda interfaol usullarning qo'llanilishi	179
Z.Toirov	Ta'lrim tizimiga muqobil enargiya manbaalaridan foydalanish bo'yicha yangi pedagogik texnologiyalarini yaratish masalalari	183
О.Н.Мухидова, Д.Р.Кулиева	Предмет и задачи методики обучения технологии	185
Б.Р.Ахтамов, З.К.Муродова	«Практикум обучения технологии» с учётом индивидуальных особенностей студентов	188
О.Р.Аvezov, Н.Б.Амруллаев	Глобаллашув шароитида маънавиятга эътиборнинг ортиб бориши	190
A.Sh.Aminov, Sh.Sh.Shavkatov	Чизмачилик фанини ахборот технологиялар ёрдамида ўтиш афзаликлари	192
Sh.H.Quliyeva, J.J.G'afurova	Texnologiya darslarida o'quvchilarga sut mahsulotlari texnologiyasini o'rgatish metodikasi	194
А.Т.Алимов, М.Расулов	Замонавий «технология» дарслигини моделлаштириш масалалари	199
A.I.Avazboyev, G'.M.Abduqadirov, G.Xojikarimova	Pedagogik texnologiyalar ulardan “texnologiya” fani darslarida foydalanishga qo'yiladigan talablar	202
A.R.Jo'rayev, G'.G'.Abdullahayev	Elektrotexnika, radiotexnika va elektronika fanini o'qitishda dasturiy ta'lif vositalaridan foydalanish imkoniyatlari	205
Х.Т.Махамов, К.Э.Боллиев,	Технология таълимида мастер класс	208